



NUTQIDA KAMCHILIGI BO‘LGAN MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING BILISH QOBILIYATLARI

Tagayeva Shaxlo Kamildjanovna
Kimyo xalqaro universiteti
Logopediya yo‘nalishi MSPD-IU

ANNOTATSIYA Ushbu maqolada nutq kamchiligiga ega bo‘lgan maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish faoliyatlarining buzilishlari natijasida kelib chiqadigan nutq rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: nutq, bilish jarayonlari, idrok, xotira, diqqat, tasavvur, tafakkur.

АННОТАЦИЯ В данной статье раскрыты особенности речевого развития, возникающие у дошкольников с речевыми нарушениями вследствие отклонений в познавательной деятельности.

Ключевые слова: речь, познавательные процессы, восприятие, память, внимание, воображение, мышление.

ANNOTATION This article highlights the specific features of speech development in preschool children with speech impairments resulting from cognitive activity disorders.

Keywords: speech, cognitive processes, perception, memory, attention, imagination, thinking.

KIRISH. Bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari, yangilanish, yuksalish jarayonlari ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurishning mustahkam poydevori bo‘lib xizmat ko‘rsatmoqda [1,3,5]. Ayni vaqtda ushbu jarayonlar jamiyatni hal qiluvchi kuchi-yosh avlod hisoblanadi. Biz esa yosh avlodni ham jismonan, ham ruhan, han ma‘nan tarbiyalashga katta ahamiyat berishimiz kerak. Mamlakatimiz prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “2017-2021- yillarda Maktabgacha ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori yosh avlodni ma‘nan va jismonan kamol insonlar qilib tayyorlash yo‘lidagi muhim qadam bo‘ldi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi [1,6].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Ma‘lumki bolalarni maktab ta‘limiga tayyorlash jarayonida jismoniy, intellektual salohiyati rivojlanishidan tashqari, uning nutqiy tomonidan to‘kis rivojlanishiga ham katta ahamiyat beriladi [5,7].

Nutq – faqatgina insonga xos noyob istedod hisolanadi, u insonlarning o‘zaro muloqot qilish vositasi bo‘lib, til vositasida fikr almashish jarayonidir. Zero, nutq kamchiliklari bolaning maktab ta‘limidagi savodni o‘zlashtirishda qator to‘siqlarni keltirib chiqarishi mumkin. Nutq

kamchiliklari maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv faoliyatini rivojlantirish eng dolzabr muammolaridan biridir, chunki kognitiv faoliyat bolalarning aqliy va ruhiy rivojlanishi uchun muhimdir [1,2,4].

Bizning fikrimizcha, maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish faoliyati qanchalik yaxshi rivojlangan bo‘lsa, maktab ta’limidagi muvaffaqiyat va bolaning shaxs sifatida rivojlanishi shunchalik yuqori bo‘ladi. Shu sababli maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv va nutqini rivojlantirishda barqaror, ijobiy natijalarga erishishga yordam beradigan samarali usullarni topishimiz va qo‘llashimiz lozim. Nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalarda nafaqat nutq kamchiliklari balki bilish jarayonlarida ham o‘ziga xos o‘zgarishlar kuzatiladi [9,11].

Bilish jarayonlari – bu insonning atrof-vuhit haqidagi malumotlarni qabul qilishi, qayta ishlashi va anglash jarayonlari bo‘lib, ular psixikaning asosiy funksiyalarini tashkil etadi. Bilish jarayonlari quyidagilardan iborat: idrok, xotira, diqqat, tasavvur, tafakkur [1,2].

Nutq kamchiligi bo‘lgan bolalar idroki

Idrok sezgi a’zolarimizga ta’sir qilib turgan narsalarni ongda bevosita aks ettirishdir. Biz narsa va hodisalarni yaxlit holicha idrok qilamiz, ayrim xossalarni esa sezamiz. Masalan, quyoshni biz idrok qilamiz, uning yorug‘ini esa sezamiz. Idrok qilish his qilish bilan birgalikda bilish jarayonida teng ishtirok etadi. Bilish jarayonining sharti sifatida, idrok qilish jarayoni fikrlash jarayoni bilan birga keladi. Idrok qilishning bir necha xil turlari mavjud bo‘lib, ular muayyan shakllari bo‘yicha farqlanadi: analizatorlarning ishtirokiga ko‘ra (ko‘ruv idroki, eshituv idroki, sezish idroki, hid bilish idroki, kinestetik idrok va h.k.); Ulug‘ qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy «Minerologiya» asarida sezgi va idrok haqida quyidagi fikrlarni keltirib o‘tgan: «Sezgilar beshta bo‘lib, ular quloq bilan eshitish, ko‘z bilan ko‘rish, burun bilan hidlash, til bilan tatib ko‘rish va teri bilan tegib bilishdan iboratdir. Ilm va ma’rifat faqatgina o‘shalar orqali hosil bo‘ladi». «Sezgilar o‘z qo‘zg‘atuvchilari orqali qo‘zg‘aladi. Agar ular me’yorida bo‘lsa, yoqimli va zararsiz bo‘ladi, me’yoridan ortiq bo‘lsa, dardli va halokatli bo‘ladi [4].

Misol uchun, ko‘rish sezgilarini nur qo‘zg‘atadi, eshishni ovozlar qo‘g‘atadi, hidlash havo bilan birgalikda burunga uriladigan hidlar qo‘zg‘atsa, ta’m sezgisi esa ovqat mazasi bilan vujudga keladi [1,8].

Fonematik idrokning buzilishi nutq nuqsoni bor bolalarning deyarli barchasida kuzatiladi. Buning sabablaridan biri nutq-eshitish va nutq-harakat analizatorlari orasidagi bog‘liqlik buzilgan bo‘ladi. Buning natijasida nutq nuqsoniga ega bo‘lgan bolalarda tovushlarni ajratishda qiyinchiliklar uchraydi, bu esa nutqning tovush tomonining rivojlanishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi [7,10].

Y.M. Mastuykovaning ko‘rish orqali idrok qilishni tekshirish natijasida nutq nuqsoniga ega bo‘lgan maktab o‘quvchilarida bu funktsiya o‘z normasida qoladi va ular obrazlarni yaxlitligicha idrok etadi va me’yordagi bolalardan farq qilmaydi, degan xulosaga keladi. Biroq nutq nuqsonlariga ega bolalarga berilgan vazifalar murakkablashtirilganida qiyinchiliklar paydo bo‘ladi. Agar nutqida kamchiligi bor maktabgacha yoshdagi bolalarda shu psixik funktsiya o‘z rivojlanish me’yoridan orqada qolgan bo‘lsa, ularda predmetning yaxlit obrazini yetarlicha

idrok etish shakllanmagan bo‘ladi. Xulosa qilib aytishimiz mumkinki idrok va nutq o‘zaro chambarchas bog‘liq. Har bir idrok nutqda ifodalanadi [1,3,9].

Nutq kamchiligi bo‘lgan bolalar diqqati.

Diqqat- bu inson ongining muayyan ob‘yektga yoki faoliyatga yo‘naltirilishi va shu o‘byektga ma‘lum vaqt davomida saqlab turish qobiliyatidir. Diqqat bilish jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. U axborotni idrok qilish, xotirada saqlash, va tafakkur jarayonlarini samarali tashkil etishga yordam beradi. Nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun diqqat o‘zgaruvchanligi, ixtiyoriy diqqatning pastligi, o‘z harakatlarini rejalashtirishdagi qiyinchiliklar kabi bir qator xususiyatlar mavjud. Diqqat ta‘sir etuvchi analizatorlarning (ko‘rish yoki eshitish) ishtirokiga ko‘ra farqlanadi: nutqida kamchiligi bor bolalarda diqqatni to‘plash ancha murakkab jarayon hisoblanadi. Masalan, nutqi to‘liq rivojlanmagan maktabgacha yoshdagi bolalarda rang, shakl, figuralarning fazoviy joylashishini farqlashda xatolar ko‘p uchraydi. Bunday bolalar diqqatining tarqoqligi tufayli biron-bir ishni oxirigacha yetkaza olmaydilar. T.S. Ovchinnikova nutqida nuqsoni bo‘lgan maktabgacha yoshdagi bolalarning diqqat xususiyatlarini o‘rganib, ularning sog‘lom bolalardan farq qiluvchi jihatlarini va aqliy faoliyat vaqtida diqqatning samaradorligini belgilab berdi [2,8,12].

Nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalarning diqqatidagi kamchiliklariga quyidagilar kiradi: Ixtiyoriy diqqatning pastligi, harakatlarini rejalashtirishda qiyinchiliklar kuzatilishi, faoliyat ustidan nazoratning shakllanmaganligi, shart sharoitlarni tahlil qilishda, yechim izlashda va vositalarni tanlashda qiyinchiliklar tug‘ilishi, diqqatning barqaror emasligi [2,5].

Nutqida kamchiligi bo‘lgan bolalarning xotirasi

Xotira- bu inson ongida malumotlarni qabul qilish, saqlash, qayta ishlab chiqish va eslatish qobiliyatidir. U shaxs tajribasini shakllantiradi va bilish jarayonini asosini tashkil etadi. Xotira orqali inson oldingi tajribalarini eslash orqali yangi bilimlarni egallaydi va ularni hayotda qo‘llaydi. Xotirasiz ta‘lim olib bo‘lmaydi. Xotira turli shakllarda na‘moyon bo‘ladi: Qisqa muddatli xotira-malumotlarni qisqa vaqt davomida saqlash qobiliyati. Uzoq muddatli xotira-uzoq vaqt davomida saqlanadigan bilim va tajribalar. Eshitish xotirasi-eshitilgan ma‘lumotlarni saqlab qolish. Ko‘rish xotirasi-ko‘rilgan obrazlarni xotirada saqlash. Harakatli (motor)xotira-harakat va malaka xotirasi [1,2,8].

NATIJAR VA MUHOKAMA. Ibn Sino nutq va xotiraning o‘zaro bog‘liqligiga e‘tibor bergan va shunday degan: “Bolalar birga bo‘lganda doimo bir-birlari bilan gaplashadilar va bu bilan o‘z xotiralari va nutqlarini rivojlantiradilar” [2,14].

P.P.Blonskiy nutqida kamchiligi bo‘lgan maktabgacha yoshdagi bolalarni xotirasini o‘rganib, ularni sog‘lom bolalar bilan solishtirgan. Ushbu tadqiqot natijalariga ko‘ra, har ikkala guruhga ham motor xotira eng yaxshi rivojlangan, eng past ko‘rsatkich esa eshitish xotirasiga tegishli. Nutqida kamchiligi bo‘lgan bolalar eshitish va yodlab qolish samaradorligi bo‘yicha sog‘lom bolalarga nisbatan ancha past natija ko‘rsatadi. Ular ko‘pincha murakkab ko‘rsatmalarni unutishadi, ayrim elementlarni tashlab yuborishadi va berilgan topshiriqlarning

ketma-ketligini o‘zgartirib yuborishadi. Bunday bolalar odatda ko‘rsatmalarni aniqlashtirish uchun nutqiy muloqotdan foydalanmaydilar [12,13].

Nutqida kamchiligi bo‘lgan bolalarning tasavvuri.

Tasavvur- bu inson biror narsani hayolida tasvirlab ko‘rishi, uni o‘zicha anglashi va tushunish qobiliyatiga aytiladi. Nutqida kamchiligi bo‘lgan bolalarning tasavvur xususiyatlarini L.G.Popova, S.V.Diyakova, V.A. Kolyagin va boshqa olimlar o‘rgangan. Lev Semyonovich Vigotskiy “bolalar tasavvurining rivojlanishi nutq rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq ekanligini takidlagan. Bolalar tasavvuri turli xil faoliyat jarayonida shakllanadi va rivojlanadi. Ilk bor tasavvur elementlari 2-2,5 yoshda namoyon bo‘ladi [13].

Nutqida kamchiligi bo‘lgan bolalar tasavvuri va ijodiy faoliyatida muammolar kuzatiladi. Ular yangi obrazlar yaratishda qiyinchiliklarga duch kelgani uchun o‘yinlarda maishiy mavzularni afzal ko‘radilar, chunki ular uncha keng tasavvurni talab etmaydi. Biroq ularning o‘yinlari o‘zining bil xilligi bilan xarakterlanadi [13,14].

Nutq kamchiligi bo‘lgan bolalar tasavvurining o‘ziga xos bo‘lgan jihatlari: faoliyatda bo‘lgan motivatsiyaning pastligi, bilimga bo‘lgan qiziqishning pastligi, atrof-muhit haqida tasavvurning yetishmasligi, ko‘rish va nutq orqali tasvirlash qobiliyatlari o‘rtasidagi bog‘liqlikning zaifligi, tasavvur qilingan vaziyatni yaratishdagi qiyinchiliklar. Nutqida kamchiligi bo‘lgan bolalar tasavvur qilinadigan vaziyatlarni shakllantirishda, aniq predmet obrazlarini hosil qilishda va ko‘rish hamda so‘z bilan ifodalash o‘rtasidagi bog‘liqlikni taminlashda muammolarga duch kelishadi. Bunday bolalarning tasavvuri tengdoshlarnikiga nisbattan kamroq bo‘lib, umumiy rivijlanish darajasi pastroq bo‘ladi [1,2,9].

Nutqida kamchiligi bo‘lgan bolalarning tafakkuri

Tafakkur- bu insonning voqeyliknin anglash, taxlil qilish va umumlashtirish ya’ni fiklash jarayonidir. Oddiy qilib aytganda tafakkur-bu aqliy faoliyat, u orqali odamlar malumotlarni qayta ishlaydi, xulosa chiqaradi va muammoni yechadi. Tafakkur nutq bilan chambarchas bog‘liq. Nutq bo‘lmasa, til vositalari bo‘lmasa, inson fikr qilolmaydi [4,9].

Shuning uchun nutqida kamchiligi bo‘lgan bolalarning tafakkur xususiyatlari muammosi logopsixologiya va neyropsixologiya fanlarining muhim muammolaridan biri hisoblanadi. Nutq va tafakkurning chambarchas o‘zaro bog‘liqligini tushunish uchun bolalar psixik funksiyalarining rivojlanishi va buzilishining ichki qonuniyatlarini e’tiborga olish kerak. Rus olimlari (L.S. Vigotskiy, S.L. Rubinshteyn, AN. Leontev va b.) tomonidan tafakkurning psixik strukturasi masalasi har tomonlama ishlab chiqilgan. Qabul qilingan tasnifga ko‘ra bilish faoliyatining uchta asosiy shakli mavjud: ko‘rgazmali-amaliy, ko‘rgazmali-obrazli va verbal-mantiqiy (nutqiy) tafakkur. Nutqida kamchiligi bo‘lgan bolalar nutqi me’yorida rivojlangan bolalardan quyidagi jihatlari bilan farq qiladilar: ularda umaumlashtirish darajasi pastroq, tafakkur yetarli darajada chidamli emas, bilimlarni o‘zlashtirish jarayoni sekin kechadi va tafakkurning ongli shakllanishi to‘liq rivojlanmagan bo‘ladi. Shuni ta’kidlash lozimki, nutqida kamchiligi bo‘lgan bolalarda tafakkurning asosiy funksiyalari yaxshi rivojlanmagan. Bular quyidagilar: taxlil, sintez, taqqoslash umumlashtirish. Bunday bolalarda predmetlar o‘rtasidagi

bog‘liqlikni aniqlash, ularni bir-biriga nisbatan joylashuvini tushinishda qiyinchiliklar kuzatiladi, shuningdek harakat koordinatsiyasi buzilgan bo‘ladi. Tafakkur qanchalik to‘liq rivojlangan bo‘lsa, so‘z rna’nosi shunchalik to‘liq bo‘ladi, ya’ni tafakkur jarayonlari, so‘z rna’nosi ortida turib, shaxsiy fikrlash darajasida kechadigan analiz va sintez bilan bog‘langan.

Erta logopedik ta’sir bolalarning bilish faoliyatini rivojlantirishga yordam beradi, nutq buzilishlarining og‘irligini kamaytiradi. Kelajagimiz poydevori bo‘lgan avlodni har tomonlama barkamol inson qilib tarbiyalash, ularni yashirin qobiliyatlarini namoyon etish, o‘zlarini jamiyat uchun kerakli shaxs sifatida his qilishlari uchun biz logopedlar hamda barkamol avlod tarbiyachisi sifatida buni yaxshi bilmog‘imiz va tarbiyaviy ish jarayonini o‘qitishni shu asosda tashkil etishni o‘rganmog‘imiz lozim [11,14].

XULOSA. Bolalarning nutqi, bilish faoliyati, emotsional-irodaviy sohalaridagi emotsional nuqsonlarni bartaraf etish logopedik yordamni sifatli, bugungi kun talabi asosida takomillashtirish va bu tizimda logoped, tibbiy hodim, tarbiyachi, psixolog va ota-onalar bilan o‘zaro hamkorlikni sifatli tashkil etishni ta’minlashimiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. 2017yil 9 sentyabr, “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3261 son
2. Abdumalikov, A. (2023). Jamiyatda uzliksiz ta’lim tizimining shaxs ekologik madaniyati yuksalishidagi roli. <http://journals.nuu.uz> Social sciences.
3. Akbarovna, A. M. (2025). Improving Creativity Skills in Primary School Students in Inclusive Education. *Miasto Przyszłości*, 56, 134-136.
4. Badalova, M. (2024). Social aspects of environmental education among young people. *Экономика и социум*, (5-2 (120)), 88-90.
5. Faxriddinova, Z. G. (2023). Nutq nuqsonlarini bola ruhiyatiga tasiri. *Scientific Impulse*, 1(7), 852-855.
6. L.Mo‘minova, M.Ayupova, SH.Amirsaidova, L.Nurmuxammedova *Logopsixologiya* 2007
7. L.R. Mo‘minova, SH.M. Amirsaidova, Z.N.Mamarajabova, M.U.Xamidova, D.B.Yakubjanova, Z.M. Dlalolova, N.Z. Abidova *Maxsus psixologiya. O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti*, 2013
8. L.R.Mo‘minova, M.Y. Ayupova *Logopediya. O‘qituvchi* 1993.
9. Maslova, Y. V. (2020). Ecologic education as a factor of ecological culture development in modern Russian society. *Humanities and Social Sciences*, (5), 270.
10. Muxtarova, L. A., & Isakova, S. X. (2024). Ko‘rshida muammosi bo‘lgan o‘quvchilar nutqini rivojlantirish yo‘llari. *Inter education & global study*, (9), 226-232.
11. Акрамова, Х. С., & Анорова, Г. Ф. (2021). Пути медико-педагогической коррекции детей, нуждающихся в специальном образовании, в логопедических

кабинетах. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (2-Махсус сон), 278-282.

12. Габитов, Т. Х., & Каупенбаева, С. М. (2013). Роль социальных институтов в формировании экологической культуры индивида. ҚазҰУ ХАБАРШЫСЫ, 1, 55.

13. Akbarova, S. (2022). Ekologik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik va psixologik xususiyatlari. ББК 74.00 (5Узб), 100.

14. Ismoilova, G., & Sayfullayeva, S. Pedagogik fanlar tizimida ekologik ta'lim-tarbiyaning uzviyligi. Ta'lim, fan va innovatsiya, 73.